



Bozorova Gulmira Maxamadaliyevna

Andijon davlat chet tillari instituti Roman-german va slavyan tillari fakulteti

Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada nemis tilida terminalarning qo'llanilishi, ularning gapdagi o'rni, shuningdek siyosiy atamalarning qiyosiy tahlili ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: nemis tili, siyosiy terminlar, diplomatik atamalar, qiyosiy.

M. M. Glushkoning ta'kidlashicha, "Termin - bu o'zining qat'iy va aniq ta'rifi tufayli aniq semantik chegaralarga ega bo'ladi. Shuning uchun tegishli tasniflash tizimi doirasida bir ma'noli bo'lmagan tushunchalarni ifodalash va obyektlarni bildirish uchun ifodalanadigan so'z yoki iboradir" [1]. Termin haqida turli olimlarning turlicha qarashlari mavjud masalan, A.A. Reformatskiy atamalarni "ekspressivlikdan mahrum bir ma'noli so'zlar" deb ta'riflaydi. Tilshunoslikda har bir tushunchaning eng aniq, konsentrlangan ifodasi mavjud. Masalan, "kitob" ma'lum bir axborot yoki ma'lumot berishda, shuningdek o'quvchiga bilim beruvchi qo'llanma ekanligi ilmiy ta'rifdir. Kundalik til so'zlari va terminlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar tilshunoslikning alohida tarmoqlari terminologiyasini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Shu munosabat bilan, A. D. Shvaytser kundalik tildagi so'zlarni, agar ular o'ziga xos ma'no bermasa, terminlar qatoridan chiqarib tashlashni taklif qilgan [3]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytib o'tishimiz lozimki, terminlar ma'no jihatdan cheklangan bo'lib, bu degani termin bir ma'noli so'z sifatida reallashadi. Terminlar emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Hattoki gapirish ohangi ham termin ma'nosini o'zgartira olmaydi. Floraga oid terminlarda ham xuddi shu xodisani kuzatishimiz mumkin. Ko'p ma'nolilik va sinonimiya terminning amal qilish xususiyati va maqsadiga ziddir. Biroq, ma'lum bir predmetli vaziyatni, muayyan imiy-texnik sohani tavsiflashda terminlar ularni noto'g'ri talqin qilishga yo'l qo'ymaydi. Terminning xarakterli xususiyati semantik chegaralarning aniqligi bo'lganligi sababli, u oddiy so'zlarga qaraganda kontekstga nisbatan ancha katta mustaqillikka ega. Xuddi shu sabablarga ko'ra, termin bir ma'noli va shu ma'noda kontekstdan mustaqil bo'lishi kerak.

Shuni aytish joizki, zamonaviy nemis tilida o'zlashgan so'zlarni haqiqiy nemischa, ruscha va o'zbekcha terminlar bilan almashtirish tendensiyasi mavjud:

Lettre de creance – Beglaubigungsschreiben; верительная грамота; ishonch yorlig'i, Ambassadeur – Botschafter; посоль; elchi va boshqalar. Shu munosabat bilan biz

diplomatik terminologiyaga xos bo'lgan sinonimiya mavjudligini alohida ta'kidlaymiz. Masalan, Memorandum – Denkschrift.

Ko'pincha lugatlarda ma'lum bir terminning muayyan bir faoliyat sohasining terminologik tizimiga tegishli ekanligi to'g'risida aniq ta'rif berilmaydi, bu ular orasidagi chegaralarning xiralashganligini ko'rsatadi. Bunga muzokaralar natijasida yaratilgan hujjatlarni misol tariqasida keltirish mumkin, masalan: shartnoma, bitim, protokol va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hak. Diplomatiya va xalqaro munosabatlar tili tizimining leksik-semantik tarkibiy qismi bu maxsus lug'at (Fachwörter) bo'lib, u aslida terminologik va terminologik bo'lmagan (masalan, professional lug'at yoki faqat ma'lum bir kontekstda ularning terminologik ma'nosini oladigan yarim) terminlarga bo'linadi.

Quyida siyosiy terminlarga ham to'xtalib o'tamiz. Tadqiqotchilar konsullik terminologiyasini tildagi diplomatik tizim bilan bir qatorda faoliyat ko'rsatadigan mustaqil terminologik tizim deb hisoblashadi. Ushbu fakt xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq shakllangan maxsus konsullik xizmati institutining mavjudligi bilan bog'liq. Shunday qilib, konsullik terminologiyasi uchun xuddi shunday quyi tizimlarga bo'linish xarakterlidir: rasmiy lavozimga ega shaxslar, konsullik darajalari: (Konsul, Generalkonsul, Vizekonsul usw.); konsullik vakolatxonalari nomlari (Konsularabteilung, Konsulat, konsularische Vertretung usw.); hujjatlarning nomlari (Visum, Exequatur, Ernennungsschreiben usw.); konsullik amaliyotidan olingan leksika (konsularischer Schutz, Konsulargericht, Konsulargebühr usw.).

Diplomatiya tilida jamiyat hayotining boshqa sohalaridagi terminlardan ham foydalanish kuzatiladi, ya'ni diplomatik terminlar umumiy lug'at bilan bog'liq. Nemis tilida diplomatik terminologiya tizimi polisemantikligi bilan ajralib turadi: termin ma'lum bir kontekstda ishlatilgandagina diplomatiya tilida ma'lum ma'noga ega bo'ladi. N.L. Konstantinova bu hodisani semantik konversiya, ya'ni umumiy adabiy tilda so'zlarning terminologiyasi deb ataydi. Masalan, odob-axloq so'zlari terminologiyasi: Frühstück (nonushta), Tischordnung (o'tirish tartibi), Protokoll (protokol), Verordnung (pozitsiya) o'z-o'zidan termin emas. Ushbu leksemalar terminologik komponentni faqat diplomatik protokolda ishlatilganda oladi. Misol uchun, M.D.Stepanova zamonaviy nemis tili diplomatik terminlarining tasnifini taqdim etadi, ular muallifning fikriga ko'ra sodda, yasama va murakkab turlarga bo'linadi.

Sodda terminlar tarkibiga so'z yasovchi otlar yoki tub so'zlar kiradi: Diplom, Visum, Attache, Protokoll, Konsul. Qo'shimcha qo'shish yordamida hosil qilingan yasama so'zlar tarkibida quyidagi kabi terminlar mavjud: Diplomat, Diplomatie, Konsulat. Murakkab termin yoki kompozitsiyalar so'z birikmalari yordamida yaratilgan quyidagi so'z birikmalar qatori bilan ifodalanadi: Diplomatenpass, Diplomatenausweis, Dollardiplomatie, Geheimdiplomatie; Einreisevisum, Ausreisevisum, Durchreisevisum; Militärattache, Presseattache, Luftattache; Protokollabteilung.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Беляков М.В. Терминология дипломатии: лексикографические проблемы. – Вестник РУДН, серия теория языка. Семиотика. Семантика. 2012, №2, – С.84.
2. Пономарева Е.В. Лексико-стилистические аспекты перевода дипломатических текстов (на материале сайтов МИДа России и Германии). – Санкт-Петербург, 2017.

